



O'ZBEKISTONDA TALABALARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARNI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Turdiyeva Rohila Ismoil qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston ta'lim tizimida talabalar tayanch kompetensiyalarini baholashning samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada, talabalar tayanch kompetensiyalarini (bilim, ko'nikma, va malakalar) baholashning hozirgi holati, amaldagi baholash tizimlaridagi kamchiliklar va ularni takomillashtirish zaruriyati batafsil tahlil qilinadi. Muallif, O'zbekistondagi ta'lim tizimida kompetensiyalarga asoslangan baholashning rivojlanishi va uni takomillashtirishga oid strategiyalarni ko'rib chiqadilar. Shuningdek, maqola O'zbekistonning ta'lim siyosati, pedagogik yondashuvlar va amaliyotlarda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va talabalar kompetensiyalarini baholash jarayonini yanada samarali qilish uchun yangi innovatsion tavsiyalar va amaliy ko'rsatmalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Kompetensiya va malaka, kompetensiyalarni baholash, obyektiv baholash, subyektivlik, shaxsiy rivojlanish, baholash tizimi

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам повышения эффективности оценки базовых компетенций студентов в системе образования Узбекистана. В статье подробно анализируется текущее состояние оценки базовых компетенций студентов (знания, умения и навыки), недостатки существующих систем оценки и необходимость их совершенствования. Авторы рассматривают развитие компетентностной оценки в системе образования Узбекистана и стратегии ее



улучшения. Также в статье предлагаются новые инновационные рекомендации и практические указания для устранения проблем, возникающих в политике образования, педагогических подходах и практике, а также для повышения эффективности процесса оценки компетенций студентов.

Ключевые слова: Компетенция и квалификация, оценка компетенций, объективная оценка, субъективность, личностное развитие, система оценки

Abstract: This article is dedicated to improving the effectiveness of assessing students' core competencies in the educational system of Uzbekistan. The article provides a detailed analysis of the current state of assessing students' core competencies (knowledge, skills, and abilities), the shortcomings of the existing assessment systems, and the need for their improvement. The authors discuss the development of competency-based assessment in Uzbekistan's education system and propose strategies for its enhancement. Additionally, the article offers new innovative recommendations and practical guidelines for addressing the challenges faced in the education policy, pedagogical approaches, and practices in Uzbekistan, with the aim of improving the assessment of students' competencies.

Key words: Competence and qualification, competency assessment, objective assessment, subjectivity, personal development, assessment system

Kirish

Talabalar tayyanch kompetensiyalarini baholash, ularning o'zlashtirish jarayonini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Qolaversa bugungi kunda globalizatsiya va raqobat ko'lamining kuchayishi, iqtisodiyot va jamiyatda



tezkor o'zgarishlar jamlanishi, yurtimizdagi oliy ta'lim mazmuni va metodologiyasini yangilashni talab etadi.

Barkamol avlodni tarbiyalash va ularning bilimlarini baholashda yangi yondashuvlarning tatbiq etilishi, mamlakatimizning ta'lim sohasida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar jamiyatni barqaror rivojlanishni ta'minlashga mos ta'lim tizimini barpo etishni talab etdi. Bu esa «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida mamlakatimizning salohiyatli, qobiliyatli, ilmga, yangiliklarga intiluvchi yoshlari va fuqarolarining yaratuvchilik imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalangan holda mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir [1]. Buning uchun ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari – o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va ularni samarali tatbiq etish muhim hisoblanadi. Ta'lim sifatini yakuniy, eng asosiy va muhim ko'rsatkichi ta'lim oluvchining ayni mutaxassislik bo'yicha nafaqat respublikamizda balki xalqaro mexnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishi hisoblanadi. sababi ta'lim jarayoni markazida aynan ta'lim oluvchilar turadi

Respublikamizda [ta'limning uzluksizligi](#), barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar talimida o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilangan[2].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi



Ko'plab ilmiy mabalarda (Mirsolieva, 2018) tayanch kompetensiyalarni baholash borasida ma'lumotlar bayon qilingan. Xususan, kompetentlikka ta'rif berib, kompetensiyalarni baholashda zamonaviy usullarni kiritish zarurligini ta'kidlaydi. [3].

F.Nazarova (2017) O'zbekiston ta'lim tizimida mavjud baholash metodlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, muallif, tayanch kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan metodikalarni o'rganadi hamda ularning qisqacha tavsifini keltiradi [4].

K.Sobitova va O'. Mansurov (2021) lar tomonidan zamonaviy o'quvchilarni tayanch kompetensiyalarini mohiyati, tayanch kompetensiyalarni baholash usullarini tarix fanidan kelib chiqib ko'rsatib bergan va mazkur jarayonni tajriba asosida misollar yoramida tahlil qilgan. O'qituvchining tayanch kompetensiyalarni baholash turi va yo'nalishiga qarab bir qancha baholash mezonlarini taklif etib, kompetensiyaviy ta'lim ko'rsatkichlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalarini baholash usullarini ko'rsatib o'tadilar [5].

E.Y. Feyushina Test usuli va kasbiy masalani echishda tashxis usuli orqali o'qituvchi kompetensiyani baholash usullarini ko'rsatadi [6]

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan ma'lumki, "tayanch kompetensiyalar" atamasining mazmun mohiyatini talqin etishga turlicha yondashuvlar uchrasada, ularning mazmuni asosida talabaning o'qish jarayonida o'zlashtirishi kerak bo'lgan asosiy bilimlar, ko'nikmalar va sifatlar to'plami, degan ma'no yotadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar asosida tahlil qilish, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi.

Natijalar

O'zbekistondagi iqtisodiy soha talabalarining tayanch kompetensiyalarini baholashni takomillashtirish jarayoni, yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish orqali yanada samarali bo'lishi mumkin. Keng qamrovli, obyektiv va shaffof baholash tizimlarini joriy etish,



talabalarni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Baholash jarayonida individual yondoshuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, talabalarni motivatsiya qilish va ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Talabalarining tayanch kompetensiyalarini baholashni takomillashtirish nafaqat akademik sohada, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega talabalarining kelajakdagi professional faoliyatida muvaffaqiyat qozonishlari uchun asos bo'adi

Quyida O'zbekistondagi iqtisodiy soha talabalarining tayanch kompetensiyalarini baholash jarayonini takomillashtirish yo'lidagi mavjud muammolarni va ularni takomillashtirish yo'llarini tahlil qiluvchi jadval keltirilgan.



Talabalarning tayanch kompetensiyalarini baholashdagi muammolar

Muammo	Tavsif	Muamolarni yechish yo'llari	Kutilgan ta'sir
Kompetensiyalarni aniq va o'lchanadigan ko'rsatkichlarga aylantirish qiyinligi:	Barcha kompetensiyalarni raqamlarga va baholarga aylantirish murakkab jarayon bo'lib, bunda sub'ektiv omillar ta'siri katta bo'lishi mumkin	Kompetensiyalarni aniq va o'lchanadigan indikatorlarga asoslangan ta'riflarni ishlab chiqish	Buning uchun ta'lim standartlari va o'quv rejalarida kompetensiyalarni aniq va tushunarli tarzda belgilab berish kerak.
Baholash uchun turli xil usullarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi	Mavjud baholash usullari hamma vaqt talabalarning barcha kompetensiyalarini to'liq baholash imkonini bermaydi.	Turli xil baholash usullarini qo'llash	Testlar, esselar, loyihalar, muhokamalar, kuzatuvlar va boshqa baholash usullarini birlashtirish orqali talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama baholash mumkin.
Baholash jarayonining ob'ektivligini ta'minlash muammosi	Baholash jarayonida shaxsiy fikrlar va munosabatlar ta'siri ostida ob'ektivlik buzilishi mumkin.	Baholash mezonlarini yaratish va ularni barcha baholovchilar uchun bir xil tarzda tushuntirish	Bu baholash jarayonining ob'ektivligini ta'minlashga yordam beradi
Baholash natijalaridan samarali foydalanish	Baholash natijalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish va talabalarning individual rivojlanishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rish ham muhim ahamiyatga ega.	Baholash natijalarini tahlil qilish va ular asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish	Baholash natijalarini tahlil qilish orqali talabalarning qaysi sohada qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlash va ular uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil etish mumkin.



Talabalarning tayanch kompetensiyalarini baholash jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etish uchun tizimli ishlar olib borish lozim. Buning uchun ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va talabalarning hamkorligi zarur.

Xulosa va takliflar

O'quv jarayonida baholash tizimlarini yaxshilash, nafaqat talabalarning bilimlarini aniqroq baholash, balki ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning keng qamrovli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Quyida o'quv jarayonida talabalarning tayanch kompetensiyalarini baholash tizimlarini takomillashtirish bo'yicha bir qancha takliflar keltirib o'tilgan. Tayanch kompetensiyalarni baholash - bu shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash jarayoni bo'lib, ularning belgilangan standartlarga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan. Bugungi kunda ta'lim va ish jarayonlarida tayanch kompetensiyalarning ahamiyati tobora oshmoqda. Shu sababli, ularni baholash tizimini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Tayanch kompetensiyalarni baholash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi yo'llarni qo'llash mumkin:

Birinchidan. Baholash mezonlarini aniqlashtirish lozim. Buning uchun Har bir kompetensiya uchun aniq va o'lchanadigan mezonlarni belgilash, mezonlarni baholashning turli usullarini ishlab chiqish (masalan, testlar, loyihalar, portfoliolar) talab etiladi.

Ikkinchidan. Baholash usullarini diversifikatsiyalash. Bunda an'anaviy baholash usullaridan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, baholash usullarini kengaytirish hamda baholash jarayonida o'quvchining faol ishtiroki ta'minlanadi.

Uchinchidan. Baholash natijalarini tahlil qilish va ular asosida ta'lim jarayonini takomillashtirishda baholash natijalarini sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali o'quvchilarning qaysi kompetensiyalar bo'yicha muammolarga duch kelayotganini aniqlash, aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonida zarur o'zgartirishlarni amalga oshirish zarur.



To'rtinchidan. Baholashda o'quvchining o'zini baholashiga imkoniyat yaratish zarur. Ya'ni o'quvchilar o'zlarining yutuqlari va kamchiliklarini aniqlab, o'z ustida ishlashga motivatsiya oladilar.

Beshinchidan. Baholash jarayonida ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlash. Ushbu jarayonda ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlarni baholash natijalari haqida xabardor qilinadi hamda ular bilan birgalikda o'quvchining rivojlanishi uchun zarur choralar ko'riladi.

Oltinchidan. Doimiy ravishda baholash tizimini takomillashtirib borish. Xususan, yangi pedagogik texnologiyalar va baholash usullarini o'rganish va joriy etish, boshqa ta'lim muassasalarining tajribasini o'rganish va o'z ta'lim muassasasida qo'llash yo'lga qo'yiladi.

Tayanch kompetensiyalarni baholash tizimini takomillashtirish ta'lim sifatini yaxshilashga hissa qo'shadi hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkoni yaratiladi, o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, va o'quvchilarga motivatsiya beradi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, tayanch kompetensiyalarni baholash tizimini takomillashtirish - bu zamonaviy ta'lim tizimining muhim talabidir. Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar ta'lim muassasalari xodimlariga o'z faoliyatlarini takomillashtirishda yordam berishi mumkin. Talabalarning tayanch kompetensiyalarini baholashni takomillashtirish, ta'lim tizimining sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar, pedagoglar va ta'lim muassasalari uchun kompetensiyalarni baholash usullarini takomillashtirish jarayoni, yangi texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish orqali amalga oshirilishi kerak. Bu nafaqat talabalarning bilim darajasini oshirishga, balki ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. O'zgaruvchan va rivojlanayotgan dunyoda, tayanch kompetensiyalarni to'g'ri baholash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – T., 2020 yil 23 sentyabr.
// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: [www Lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Mirziyoev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: www Lex.uz
3. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining tadqiqotchilik kompetent ligini rivojlantirish.//«Zamonaviy ta'lim», 2018, 2-son.
4. Nazarova F.U "Oliy ta'limda baholash tizimini takomillashtirish xususiyatlari"
Замонавий таълим / Современное образование 2017, 4
5. Sobitova K., Mansurov O'. "Zamonaviy o'qituvchini tayanch kompetensiyalarini baholash mezonlari". Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 8 (2021)
6. Феюшина Э.Е. «Как пройдет оценка компетенций учителя» <https://pedsovet.org/search/author/fedusina-elvira-evgenevna>.